

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 11-dekabr, № 256 (8879) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TOSHKENT VILOYATI: QO‘SHIMCHA IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLI LOYIHALAR TAHLILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-dekabr kuni Toshkent viloyatida qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solish, ish o‘rni va investitsiyani ko‘paytirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Toshkent viloyatida sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, turizm, umuman, barcha sohada juda katta imkoniyatlar bor. So‘nggi yetti yilda hudud iqtisodiyoti 1,5 barobar o‘sgan. Sanoat korxonalari 2 karra ko‘payib, 12 mingtaga yetgan.

Lekin imkoniyatlar bundan ancha ko‘p, ular to‘la ishga solinmayapti. Masalan, viloyatdagi jami yerlarning bor-yo‘g‘i 25 foizidan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi. Har gektarga to‘g‘ri keladigan daromad ham boshqa joylarga nisbatan kam. Bekobod va Ohangaron shaharlari, Oqqo‘rg‘on, Chinoz, Piskent tumanlarida qayta ishlash darajasi juda past. Oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotlar eksporti ham imkoniyatga yarasha emas.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish choralari belgilandi. Unga ko‘ra har bir klaster, fermer va dehqon xo‘jaligi maydonidagi ekinlar, mahsulot hajmi, ishchilari soni, soliq tushumi kabi ma’lumotlar “Agroplatforma” axborot tizimiga kiritiladi. Kelgusi yilda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan 7 ta tumanda 52 ming gektarda 3-marta hosil olish yo‘lga qo‘yiladi. 5 ming gektarda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlar tashkil qilinadi.

Umuman, 22 ta tuman-shahardagi yerlar qayta ishlovchi va eksportchi korxonaga bog‘lanadi. Bu orqali kelasi yil 3,5 million tonna meva-sabzavot yetishtirib, 500 million dollar eksport qilish mumkinligi aytildi.

Toshkent viloyatining infratuzilmasi, logistikasi tadbirkorlik uchun juda qulay. Lekin ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar umumiy maydoni uch yilda bor-yo‘g‘i 1,6 million kvadrat metrga oshgan, bu poytaxtdan 3,5 barobar kam. Investitsiyaviy loyihalar uchun toifasi o‘zgartirilgan 9 ming gektar yerning 2 ming gektaridan foydalanilmayapti. Bo‘sh turgan davlat inshootlari ham bor.

Holbuki, investorlar bu hududda “aqlli” shahar, tibbiyot klasteri, “yashil” energetika stansiyasi qurish tashabbusini bildirgan. Vodiylik va poytaxtlik minglab tadbirkorlar ham biznesini kengaytirish, yangi korxona, mehmonxona, savdo va turizm majmualari qurish uchun joy izlab yuribdi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va viloyat mutasaddilariga bu boradagi sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi. Bino va yerlarni tadbirkorlarga qulay shartda auksionga chiqarish, ularning negizida investitsiya, ish o‘rni va eksportni ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Toshkent viloyati hokimi kelgusi yil 5 milliard dollar investitsiya jalb etish hamda eksportni 2 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi. Davlatimiz rahbari uning tarkibiga e’tibor qaratib, kutilayotgan investitsiyaning yarmi shundog‘am rivojlangan Olmaliq, Angren, Chirchiq shaharlari, Ohangaron, Zangiota va Qibray tumanlariga to‘g‘ri kelishini qayd etdi. Shu bois sanoat va xizmatlar nisbatan orqada bo‘lgan Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Bo‘ka, Parkent, Piskent, Quyi Chirchiq va Chinozda qo‘shimcha loyihalar qilib, ish o‘rinlari ochish zarurligi ta’kidlandi.

Toshkent viloyatidagi imkoniyatlar hisobiga barcha aholini daromadli qilish mumkinligi aytildi. Kelgusi yilda viloyatda 700 ming odamning bandligini ta’minlab, ishsizlikni tabiiy darajasigacha tushirish, 22 ming oilani daromadli qilib, kambag‘allikni hozirgi 7,2 foizdan 4 foizga kamaytirish, mehnat migrantlarini yurtimizga qaytarib, ishga joylashtirish vazifa qilib olindi.

Prezidentimiz yig‘ilishda qatnashgan viloyat tadbirkorlari bilan ham muloqot qildi. Ularning taklif va tashabbuslariga alohida e’tibor qaratib, bu borada mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT HAJMI YANADA KENGAYADI

Davlatimiz rahbariga oziq-ovqat sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2025-yilgi rejalar bo‘yicha axborot berildi.

Aholi soni izchil o‘sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash dolzarb bo‘lib bormoqda. Buning ustiga global iqlim o‘zgarishlari, yer va suv taqchilligi qishloq xo‘jaligida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitga qaramasdan bu yil yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko‘p go‘sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 343 ta loyiha ishga tushirildi.

Shu bilan birga, mahalliylashtirish bo‘yicha hali imkoniyatlar ko‘p. Ayniqsa, non, sut, go‘sht, o‘simlik yog‘i, qandolat va salqin ichimliklar ishlab chiqarishni oshirish kerak.

Yig‘ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda qandolat mahsulotlari eksporti 4 karra oshib, 13 million dollarga yetgan. Xomashyo, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kelinib, tannarx 20 foizga kamaygani tufayli raqobatdoshlik ancha oshgan. Bu imtiyozlar muddati 2025-yil 1-yanvarda tugaydi. Ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida mazkur muddatni yana 2 yilga uzaytirish taklifi ko‘rib chiqilmoqda.

Yog‘-moy sanoatida 408 ta korxona ochilgan. Lekin yurtimizda xomashyo kamligi uchun ular har doim ham to‘la quvvatda ishlamayapti. Yog‘-moy eksportiga ruxsat berilsa, ishlab chiqarish 120 ming tonnaga oshib, 240 ming tonna ozuqa yem tayyorlanishi hisob-kitob qilingan.

Bosh vazir o‘rinbosariga bozor talablaridan kelib chiqib, bu borada taklif kiritish topshirildi.

Mamlakatimizda “halol” sertifikatiga ega milliy brend korxonalari ko‘payib, mintaqa va arab davlatlariga go‘sht mahsulotlari eksport qilyapti. Lekin bizda kolbasa mahsulotlarini saqlashning standart muddati 3 oy etib belgilangan. Xorijdagi iste’molchiga yetib borguncha 2 oy ketyapti. Go‘sht mahsulotini saqlash muddati Yevropa standarti kabi 4 – 12 oyga oshirilsa, ishlab chiqarish va eksport hajmini 2 karra ko‘paytirish imkoniyati ochiladi. Shuning uchun bu boradagi standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi qo‘yildi.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida ularni tahlil qiladigan laboratoriyalar tashkil etish zarurligi aytildi. Shundan kelib chiqib ushbu mahsulotlarning tabiiy yoki quruq sutdan tayyorlangani to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Yurtimizda salqin va alkogolsiz ichimliklar, meva-sabzavotdan tabiiy sharbat ishlab chiqarish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. So‘nggi 5 yilda ularning eksporti 9 barobar oshib, 35 million dollarga yetdi. Lekin o‘zimizda yo‘q tropik mevalar konsentratiga boj qo‘yilgani uchun boshqa davlatlar mahsulotlari bilan raqobatda yutqazyapti. Shu bois tropik mevalar konsentratlarini bojxona bojidan ozod qilish taklifi bildirildi.

Yig‘ilishda mutasaddilar “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida sohadagi tadbirkorlar bilan olib borilayotgan o‘zaro manfaatli hamkorlik haqida axborot berdi. Prezidentimiz kelgusi yilda bu ishlarning sifatini yanada oshirish va ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘zA.

Shukuh

XALQIMIZNING BIRDAMLIK QO‘SHIG‘I

Kecha O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz bo‘ylab turli tadbirlar o‘tkazildi.

Ona xalqimizni buyuk maqsadlar sari birlashtirish, yoshlarda milliy vatanparvarlik hissini shakllantirishda davlat ramzlari qabul qilingan kunlarni bayram sifatida keng nishonlash katta ijobiy samara bermoqda.

Ayniqsa, xalqimizning bosh qo‘shig‘i – Davlat madhiyasi mamlakatimiz mustaqilligi va erkinligini ifodalaydigan musiqiy asar sifatida uzoq yillardan beri avlodlar o‘rtasida umummilliy birlik va yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu muqaddas timsol mardona va sharaflarga boy o‘tmishimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimiz, tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg‘ularni o‘zida mujassam etadi.

Vazirlar Mahkamasining shu yil 6-dekabrdagi bayoniga muvofiq, 10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilinganining 32 yilligi bayram tadbirlari “Yurakni madh etgan sado!” shiori ostida o‘tkazildi.

Erta tongdan barcha davlat va jamoat tashkilotlari, ta’lim maskanlari, harbiy qismlar, harbiy bilim yurtlari va boshqa huquq-tartibot muassasalarida Davlat madhiyasi jo‘r bo‘lib kuylandi.

Ana shunday tadbirlardan biri O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda tashkil qilindi. “Tamaddun, madaniyat va ma’rifat” shiori ostida o‘tgan ushbu tadbir avvalida ishtirokchilar Davlat madhiyasini birgalikda jonli ijro etishdi.

Shundan so‘ng so‘z olganlar madhiya va uning tarixi, beqiyos ruhi, kelajak avlod oldidagi abadiy burch haqida gapirdi. Milliy g‘ururimiz timsoliga aylangan ushbu muqaddas qo‘shiqdagi har bir so‘z, jozibador ohang ko‘ngillarga ko‘tarinki shukuh bag‘ishlab, xalqimizni ezgu maqsad yo‘lida yanada jipslashtirishi, yuksak marralarga ruhlantirishi ta’kidlandi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida amalga oshirilayotgan ishlar xususida ham so‘z bordi. Ishtirokchilar uchun markaz faoliyatiga bag‘ishlangan videorolik taqdim etildi.

3

MAS’ULLARNING BILIM VA KO‘NIKMALARI OSHIRILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida ijro hokimiyati organlari rahbar kadrlari hamda sektorlar rahbarlari ishtirokida o‘quv-amaliy seminar bo‘lib o‘tmoqda.

Seminar

Davlatimiz rahbarining parlament palatalari majlislarida so‘zlagan nutqlari hamda 2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan ijro hokimiyati organlari rahbar kadrlari va sektorlar rahbarlari oldida turgan vazifalarga bag‘ishlangan ushbu seminarda vazirlik hamda idoralar mas’ullari, Farg‘ona, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlari sektor rahbarlari qatnashyapti.

Tadbirni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov kirish so‘zi bilan ochib, seminarni o‘tkazishdan maqsad va uning ahamiyati haqida to‘xtaldi. Xususan, bu sohalar rahbarlarining aholi muammolarini aniqlash hamda hal etish tizimining samarali ishlashini ta’minlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘ringa egaligini ta’kidladi.

2

Munosabat

PARLAMENT VAKOLATLARI VA NATIJADORLIK

Bosh qomusimizning 32 yilligi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlandi. Prezidentimizning xalqimizga yo‘llagan bayram tabrigida qayd etilganidek, inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Asosiy Qonunimizda muhrlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotga izchil tatbiq etish borasida yurtimizda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning xalqchilligi shundaki, unda konstitutsiyaviy normalar soni 275 tadan 434 taga yetdi yoki 159 taga ko‘paydi hamda ularning ijro mexanizmlari ochib berilgan. Bu esa Asosiy Qonunimizning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan hujjat ekanligidan dalolatdir.

Bosh qomusimizda parlament Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari, har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas’uliyat sohalari aniq belgilab berilgani diqqatga sazovor. Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari beshtadan o‘n ikkitaga yetdi.

Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish, Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi a’zolarining o‘z faoliyati yuzasidan hisobotlarini eshitish, davlat organlarining mansabdor shaxslariga parlament so‘rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish kabi vakolatlar konstitutsiyaviy norma darajasiga ko‘tarildi va parlament nazorati kuchayishining muhim omiliga aylandi.

2

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

HUQUQIY NORMALARDA INSON MANFAATLARI USTUVOR

Kecha mamlakatimizda milliy g‘ururimiz, istiqlolimiz timsoli – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilinganining 32 yilligi keng nishonlandi. 1992-yil 10-dekabr kuni Oliy Kengashning 400 dan ziyod deputatlar qatnashgan 11-sessiyasida qabul qilingan madhiyamizning bugun har birimizning hayotimizdagi o‘rni haqida siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig‘ilishlarida batafsil to‘xtalib o‘tildi. Uning har bir so‘zi butun O‘zbekiston ahlining asriy orzu-istaklari, g‘ayrat-shijoati, xalqimizga xos mehmondo‘stlik, ajdodlar yodi hamda millat g‘ururini mujassam etgani bilan ahamiyatli ekani alohida aytildi. Shundan so‘ng yig‘ilishlarda parlament quyi palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi



rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Kreditlarni fuqarolar xabarisiz ularning nomiga rasmiylashtirish holatlari bartaraf etiladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirish, qurilishda chang va qum zarralarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Xususan, “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Keyingi yillarda firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning xabarisiz kredit mablag‘larini ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kredit mablag‘larini o‘zlashtirish holatlari tobora ortib bormoqda.

Mazkur qonun loyihasining asosiy maqsadi esa firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning xabarisiz kredit mablag‘larini ularning nomiga rasmiylashtirish va bu mablag‘larni o‘zlashtirish holatlarining oldini olishga qaratilgan mexanizmni yaratishdan iborat.

2

MA’MURCHILIK BUNYODKORLARI

O‘zbekiston aholisining yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi va tabiiyki, ularning turmush farovonligi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivoji bilan uzviy bog‘liq. Agrar tizim nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari, balki sanoatning ko‘pgina sohalarini xomashyo bilan ta’minlovchi muhim tarmoqdir.

Aks sado

So‘nggi vaqtlarda agrosanoat mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda yurtimiz dehqonu fermerlari barcha shart-sharoit va imkoniyatga ega. Jumladan, ekin uchun urug‘lik, mineral o‘g‘it va boshqa zaruriy resurslar bevosita fermerning dalasi boshigacha yetkazib berilib, barcha turdagi xizmatlar ko‘rsatilayotir.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan fermerlik faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgani natijasida ularda o‘z xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish, hech kimga qaram bo‘lmagan holda erkin faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi.

3

IQTISODIYOTNING ENG MUHIM DRAYVERI

Oxirgi besh yilda tog‘-kon va metallurgiya sohasiga qariyb 9,5 milliard dollarlik investitsiya jalb qilinib, 15 ta yirik loyiha ishga tushirildi.

Fakt va raqamlar



Kelgusi yilda:

- tog‘-kon va geologiya sohasidagi loyihalarga **1 milliard dollarlik** investitsiya jalb qilish;
- kaolin ishlab chiqarishni **50 foiz** oshirish;
- ko‘mir qazib olishni **10 million** tonnaga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Shuningdek, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasi va O‘zbekiston metallurgiya kombinatida yangi quyuv prokatlash majmuasi ishga tushiriladi.



Xalq so‘zi
www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz
2024-yil 11-dekabr

MAS’ULLARNING BILIM VA KO‘NIKMALARI OSHIRILMOQDA

1 Shuningdek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva muloqot davomida “mahalla yettiligi” faoliyatini yangi mexanizm asosida yo‘lga qo‘yish, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish, mahallabay ishlashga mas’ul rahbarlar faoliyatini yanada samarali, jipslikda tashkil etish masalalariga urg‘u berdi.

O‘quv-amaliy seminarda hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash, investitsiya, eksport hamda mahalliylashtirishda ustuvor masalalar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar haqida ham ma’lumot berildi.

Ko‘pchilikni qiziqtiradigan migratsiya jarayonlarini tartibga solish, yangi mezonga ko‘ra yer ajratish, mahallalardagi bo‘sh obyektlardan samarali foydalanish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish hamda yo‘l bo‘yi hududlarda infratuzilmani yaxshilash, aholini uy-joy bilan ta’minlash haqidagi yangiliklar tinglandi.

Aytish joizki, mazkur tadbir davomida shaharsozlik, atrof-muhitni asrash, islohotlarning hududlardagi samaradorligini hamda mansabdor shaxslar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash va boshqa dolzarb mavzularda vazirlik hamda idoralar rahbarlari, soha mutaxassislari tomonidan muloqot shaklida ma’ruzalar tashkil etish nazarda tutilgan. Muhokamadagi masalalar yuzasidan esa yechimlar ishlab chiqiladi.

O‘quv-amaliy seminar 21-dekabrgacha davom etadi.

“Xalq so‘zi”.

PARLAMENT VAKOLATLARI VA NATIJADORLIK



1 Yana bir e’tiborli jihat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar Senat tomonidan oltmish kun ichida ko‘rib chiqilishi belgilandi. Agar Senat qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida oltmish kun ichida bir qarorga kelmasa, quyi palata tomonidan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborilishi nazarda tutildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz imzolangandan so‘ng Qonunchilik palatasida darhol uning normalarini amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonlari boshlandi. O‘tgan qisqa davr mobaynida amaldagi 150 dan ortiq qonunlarga konstitutsiyaviy normalar implementatsiyasi bajarildi. Misol uchun, o‘tgan 2023-yilning 14-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Qonunchilik palatasi va Senatining yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan mutlaq vakolatlarini hamda parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonunchilik takliflarini ilgari surish va qonunlarni qabul qilishning yangi tartibini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan 13 ta qonunga, shundan 4 tasi Konstitutsiyaviy Qonun, 1 ta kodeksga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 94-moddasiga asosan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari yuqorida ta’kidlanganidek, 5 tadan 12 taga, 95-moddasiga muvofiq Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari 14 tadan 18 taga oshirilganligi tegishli qonun hujjatlarida o‘z aksini topdi.

Shuningdek, 92-moddaga muvofiq Senat a’zolari har bir ma’muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan saylanishi, 9 nafari esa Prezident tomonidan tayinlanishi (jami 65 nafar) belgilandi. Doimiy asosda ishlovchi senatorlar soni esa amaldagidek 25 nafar miqdorda saqlab qolindi.

104-moddaga asosan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining va doimiy ishlaydigan senatorning o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ijodiy jabhada ham shug‘ullanishi mumkinligi huquqi mustahkamlab qo‘yildi.

Yana bir muhim masala. 98-moddaga binoan parlament quyi palatasiga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish huquqi saylov huquqiga ega bo‘lgan, 100 ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolarga, Senatga, Ombudsmanga va Markaziy saylov komissiyasiga berildi. Qonunchilik taklifida muayyan qonunni qabul qilish, o‘zgartirish kiritish, bekor qilish zarurati asoslantirilishi hamda uning g‘oyasi va kutilayotgan natijalar haqida ma’lumot bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yildi.

Shu bilan birga, fuqarolar tomonidan kiritiladigan qonunchilik taklifining mexanizmi va uning predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lmagan masalalar aniqlashtirildi. Jumladan, hududiy yaxlitlikni o‘zgartirish, amnistiya va afv etish, mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod qilish shunday masalalar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbarining shu yil 18-noyabrdagi nutqida fuqarolarning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasini tashkil etish taklifi bildirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz normalariga mos ravishda ilgari surilgan bunday takliflar ijrosini ta’minlash zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Zero, Asosiy Qonunimiz yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini belgilab bergan, jadal sur’atlarda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarimizning huquqiy asosidir.

Zafar XUDOYBERDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

HUQUQIY NORMALARDA INSON MANFAATLARI USTUVOR



1 Qonun loyihasi bilan jismoniy shaxs o‘zining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimini rasmiylashtirish bilan bog‘liq firibgarliklarning oldini olish maqsadida kredit byurosiga ariza kiritish orqali u bilan kredit bitimini tuzishni taqiqlashi mumkin bo‘ladi.

Deputatlar qonun loyihasini ko‘rib chiqish jarayonida uning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to‘xtalib, loyihada nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Unga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha savollar berishdi.

Qonun tashabbuskorlari deputatlar tomonidan ko‘tarilgan savollarga batafsil tushuntirish berib, uning qabul qilinishi fuqarolarning xabarisiz kreditlarni ular nomiga rasmiylashtirish va mazkur kreditlarni o‘zlashtirish holatlarining oldini olishga xizmat qilishini qayd etdilar.

Yig‘ilishda “Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Fraksiya a’zosi Nuriddin Sultonov qonun loyihasining ahamiyatiga to‘xtalib, u bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlarini joriy qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotganini ta’kidladi. Shuningdek, Yer kodeksi alohida 2^1-bob bilan to‘ldirilib, unda yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish tizimini joriy qilish, ularni belgilash va o‘zgartirish tartiblari o‘z aksini topmoqda.

Yig‘ilishda deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – zargarlik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi.

Unda 2027-yil 1-sentabrga qadar “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasiga a’zo bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni mol-mulk va yer solig‘idan ozod etish belgilanmoqda.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlanmadi

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida bir qator qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda dastlab chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari ko‘rsatish sohasida to‘lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasida chiqindi xizmatlari uchun oylik to‘lovlardan qarzdorligi bo‘lgan iste’molchilarni qisqa xabar (SMS) orqali xabardor qilib borish, qarzdorlik vujudga kelganligi to‘g‘risida ogohlantirilganidan keyin to‘lovlar amalga oshirilmagan taqdirda iste’molchilar chiqindi xizmatlari bo‘yicha qarzdorlikni bartaraf etmaganiga qadar ularning elektr energiyasi uchun to‘lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklashga qaratilgan huquqiy normalarni belgilash taklif etilmoqda.

Qizg‘in muhokamalar jarayonida qonun loyihasidagi ayrim normalar fraksiya a’zolarining jiddiy e’tirozlariga sabab bo‘ldi va qo‘llab-quvvatlanmadi.

Shuningdek, yig‘ilishda jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokamalar markazida bo‘ldi.

Ma’lum qilinganidek, keyingi yillarda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida jamoat transportiga ustuvorlik berish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda. Xususan, birgina poytaxtda avtobuslar soni so‘nggi yillarda 2 barobar oshdi. Avtobuslar uchun 48,2 kilometr alohida yo‘laklar tashkil etilib, oraliq interval 2 barobarga qisqartirildi. Biroq qonunchilikdagi bo‘shliqlar jamoat transporti samaradorligini yanada oshirishga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Jumladan, qonunchilikda jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo‘laklarda harakatlangan transport vositalari haydovchilari uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Natijada yengil avtomobillar bunday yo‘laklarda bemalol harakatlanib, avtobuslar qatnoviga to‘sqinlik qilmoqda.

Shundan kelib chiqib ushbu qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasini yanada takomillashtirish, uni pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish bo‘yicha o‘z taklif va tavsiyalarini bildirdi.



Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat –“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi “O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11^1-moddasiga aktivlarni repatriatsiya qilish talablarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

Unda tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha belgilangan muddatlarda aktivlar repatriatsiya qilinmagani uchun qo‘llaniladigan javobgarlik choralarini soddalashtirish orqali takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilmoqda.

Fraksiya a’zolari bular yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Xususan, deputat Nodir Tilavoldiyev mazkur qonun loyihasi bilan tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlik uchun qo‘llaniladigan uch bosqichli jami 50 foizlik jarima qo‘llash tartibini bekor qilib, uning o‘rniga qaytmagan aktivlarning 20 foizi miqdorida bir martalik moliyaviy jarimani qo‘llash tartibi joriy etilayotganini aytdi. Bunda bitta tashqi savdo shartnomasi doirasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik summasi 10 foizdan oshgan taqdirda moliyaviy jarimani qo‘llash tarzidagi javobgarlikni yengillashtirish belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha qulayliklar hamda muddati o‘tgan debitor qarzdorliklarni qisqartirish imkonini yaratadi.

Yig‘ilishda kun tartibidan o‘rin olgan boshqa qonun loyihalari ham atroflicha muhokama qilinib, deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoj qondiriladi

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirish, alkogol va tamaki bozorini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.

“Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi bilan “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi va “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Shuningdek, iste’mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi faoliyatiga berilgan litsenziya uchun yillik davlat bojini to‘lashning aniq muddatini belgilash ko‘zda tutilyapti.

“Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonunga esa vakolatli organga tamaki mahsulotlari bilan ulgurji va chakana savdo qilish faoliyati boshlanishi to‘g‘risida xabarnoma yuborish yo‘li bilan amalga oshirilishi haqida norma kiritilmoqda.

Deputatlar ushbu qonun loyihasini atroflicha muhokama qilib, partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni yanada takomillashtirish, maromiga yetkazish bo‘yicha o‘z munosabatlarini bildirdi. Qonun tashabbuskorlari berilgan takliflar asosli ekanini, ular loyihani pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish jarayonida e’tiborga olinishini ta’kidlashdi. Munozaralardan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Shundan so‘ng “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama markazida bo‘ldi.

Deputatlar qonun loyihasi pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) bo‘yicha zamonaviy qonunchilik bazasi yaratilishiga, faktoring operatsiyalarining ommalashuvi va rivojlanishiga, pirovardida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishiga xizmat qilishini e’tiborga olib, uni qo‘llab-quvvatladi.

Yo‘llarda harakatlanish xavfsizligi ta’minlanadi

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, hozirgi kunda fuqarolar tomonidan transport vositalarini boshqarish jarayonida yo‘l harakati qoidalariga amal qilmasdan, velosiped yo‘laklari, trotuarlar hamda yashil hudud maydonlaridan harakatlanish holatlari uchramoqda. Bu esa bevosita piyodalar, ya’ni insonlar hayotiga turli darajada xavf solyapti.

Shu bilan birga, fuqarolar o‘z yashash hududlaridagi ko‘chalarda noqonuniy ravishda sun’iy to‘siqlar o‘rnatishi, yo‘lni to‘sib qo‘yish orqali harakatlanishni cheklagan holda transport vositalari haydovchilari va boshqa fuqarolarga, ayniqsa, aholiga shoshilinch xizmat ko‘rsatuvchi maxsus transport vositalari harakatiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan haydovchilarning trotuarlar, velosiped yo‘laklari, yashil hududlar maydonlaridan harakatlanishining oldini olish va yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari hamda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish, shuningdek, aholi tomonidan noqonuniy ravishda yo‘lning qatnov qismiga to‘siqlar o‘rnatish yoki yo‘llarni to‘sib qo‘yish, transport vositalari va fuqarolarning harakatiga to‘sqinlik qilish holatlariga chek qo‘yish uchun javobgarlikni belgilash taklif etilmoqda.

Yig‘ilishda deputatlar bu jihatlarni ma’qullagan holda yo‘llarni harakat uchun qulaylashtirish, sifatli hamda xavfsiz holga keltirish ham muhim ekanini ta’kidladi. Xususan, O‘zXDP fraksiyasi a’zosi Anvarxon Temirov qonun loyihasining mazmuni uning zaruratini ko‘rsatayotganini ta’kidladi. Biroq undan oldin amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar borligiga e’tibor qaratdi. Buning uchun, birinchi navbatda, piyodalar hamda velosiped yo‘laklarini, trotuarlarni belgilash va tartibini aniqlab olish lozimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, hozir qurilayotgan ko‘p qavatli uylar yoki boshqa obyektlar oldida avtoturargoh bo‘lishi mumkin. Ammo aksariyat binolarga kirib chiqish uchun haydovchi avtomobilini majburan yo‘l chetlariga, piyodalar yo‘lagi yoki belgilanmagan boshqa joylarga qo‘yishga majbur bo‘ladi. Bu kabi noqulayliklar bor ekan, jarimaga tortish bilan masalaga yechim topib bo‘lmasligi bildirilib, qator takliflar ilgari surildi. Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Qurilish tashkilotlari yanada e’tiborli bo‘ladi

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida deputatlar tomonidan qurilishda chang va qum zarralarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda qurilish va urbanizatsiya ko‘lamining kengayishi, qurilish obyektlari maydonlaridan chang va qum zarralarining shamol orqali havoga ko‘tarilishi holatlari atmosfera havosining yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqib qonun loyihasi bilan qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qurilish tashkilotlari mansabdor shaxslarining javobgarligini belgilash taklif etilyapti.

Fraksiya a’zosi Mohira Xo‘jayeva mazkur qonun loyihasi ekologik vaziyatni yaxshilash, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, qurilish tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdi. Muhokama so‘ngida qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilishda, shuningdek, chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarini ko‘rsatish sohasida to‘lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Fraksiya a’zolarining fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi chiqindilarni to‘plash va olib chiqish borasida aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar yanada yaxshilanishiga, sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi yuzasidan taklif va tavsiyalar berilib, loyiha qo‘llab-quvvatlandi.

“Xalq so‘zi”.

ADOLATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA MUSTAHKAM ZAMIN

Inson qadri ulug‘langan yurtda rivojlanish bo‘ladi. Shu bois bugun yurtimizda inson qadrini ulug‘lash, qonun ustuvorligini ta’minlash va adolatni qaror toptirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Ta’kidlash joizki, umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson, uning hayoti, sha’ni va qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan demokratik davlatni, boshqacha aytganda, ochiq hamda adolatli jamiyatni barpo etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, mamlakatimizning kelgusida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq sohalarini barqaror rivojlantirishning huquqiy asoslarini hamda jamiyat va davlat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Nuqtai nazar

Bosh qomusimizda ilgari mavjud bo‘lgan “davlat – jamiyat – shaxs” paradigmasi “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirildi. Qolaversa, unda inson huquqlariga oid normalar 3,5 barobarga oshib, 50 dan ortiq normalarda o‘z ifodasini topdi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini o‘zida mujassam etdi.

Asosiy Qonunimizda o‘lim jazosi qat’iy taqiqlanishining belgilanishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini namoyon qildi. Xalqaro institutlar – “Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” tamoyillariga qat’iy rioya qilinganini alohida ta’kidlash mumkin.

“Miranda qoidasi”ga ko‘ra shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari hamda ushlab turish asoslari unga tushunarli tilda bayon qilinishi, shuningdek, gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligining belgilanishi Bosh qomusimizning katta yutuqlaridan biri bo‘ldi.

Bundan tashqari, Asosiy Qonun bilan mamlakatimizda inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi milliy institutlar qatorida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) institutining vakolatlari va vazifalari kengaytirildi.

Xususan, 56-moddada inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar maqomi va kafolatlari aniqlashtirilib, bu milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi, davlat esa milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoit yaratishi belgilab qo‘yilgan. 55-modda bilan har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usul bilan himoya qilishga haqliligi, har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlandi.

Ma’lumki, fuqarolar o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan Ombudsmanga murojaat qilishi mumkin.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) aholi murojaatlarini fuqarolar qabuli, sayyor qabullar, pochta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, “www.pm.gov.uz” internet portali, “ombudsman.uz” sayti va mobil ilovasi hamda “Ombudsman quti”lari orqali qabul qilmoqda. Murojaat mazmunidan kelib chiqib o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar joyiga chiqib o‘rganilmoqda hamda ta’sir choralari kiritilib, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanmoqda.

Bosh qomusimiz fuqarolarning Ombudsmanga qilgan murojaatlarida ko‘tarilgan muammoli masalalarni ko‘rib chiqish, chuqur tahlil etish va tizimlashtirish orqali xalq ovozini qonunchilik takliflari orqali xalq noiblariga yetkazish imkoniyatini berdi. Ya’ni Konstitutsiyaning 98-moddasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida parlament quyi palatasiga kiritish huquqining berilishi belgilandi.

Yana bir muhim jihatlardan biri, asosiy hujjatda ilk marotaba ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqlari mustahkamlab qo‘yildi. Xususan, Bosh qomusimizning 28-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega ekanligi o‘z aksini topdi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida hamda 2021-yil 26-iyunda qabul qilingan “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarorida qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Qiynoq holatlarini aniqlash va uning oldini olish, u bilan bog‘liq murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish maqsadida Ombudsman huzurida Qiynoqlarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari tashkil etilgan.

Ombudsman va jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylar (43 ta jazoni ijro etish koloniyasi va 11 ta tergov hibsxonasi)ga muntazam ravishda monitoring tashriflari amalga oshirilmoqda. Unda u yerda saqlanayotgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi, inson sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi, qiynoq holatlariga yo‘l qo‘ymaslik masalalari o‘rganib borildi.

Raqamlarga nazar solsak, 2021-yilda 177 marotaba, 2022-yilda 381 marotaba monitoring tashrifi amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 603 tani tashkil etdi. Natijada qiynoqqa solish holatlarining oldini olish bo‘yicha parlament va jamoatchilik nazorati o‘rnatilishiga erishildi. Monitoring tashriflari davomida aniqlanayotgan kamchiliklar yuzasidan tahliliy ma’lumot va axborotlar, xulosa va taqdimnomalar hamda talabnomalar tayyorlanib mutasaddi vazirlik va idoralarga ko‘rib chiqish uchun yuborilmoqda. Bundan tashqari, ushbu monitoring natijalari Ombudsmanning Oliy Majlis palatalariga taqdim qiladigan yillik axborotida ham aks etmoqda.

Muxtasar aytganda, Konstitutsiyamizda belgilangan barcha normalar davlatimiz va jamiyatimizning barqaror rivojlanishi, fuqarolar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining ta’minlanishini kafolatlaydi.

Feruza ESHMATOVA,
Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman).

Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra shu yilning 9-dekabr holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi 37 535 605 kishini tashkil etdi.









MA’MURCHILIK BUNYODKORLARI



natijasida o‘rtacha hosildorlik birinchi marta 85 sentnerga yetkazildi.

Albatta, bu natijalar, yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bu yil davomida qishloq xo‘jaligi subyektlariga 18 trln. so‘m imtiyozli kredit va 176 mlrd. so‘m subsidiya ajratilgani, umumiy qiymati 3,6 trln. so‘mlik 11600 ta yuqori unumli zamonaviy texnika va agregat yetkazib berilganining amaliy natijasidir.

Prezidentimiz Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigida agrar tarmoqda erishilgan natijalar bilan birga, kelgusida amalga oshiriladigan muhim vazifalarga ham alohida e’tibor qaratdi. Xususan, sohani ilm-fan asosida rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, uning barcha tarmog‘idagi innovatsion faoliyatni integratsiyalash maqsadida kelgusi yili O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi tashkil qilinishini ta’kidladi. Bu nihoyatda muhim tashabbus bo‘lib, mamlakat agrar ilm-fani salohiyatini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

O‘tgan yillardagi ijobiy tajriba davom ettirilib, yana 100 ming gektar yer dehqon xo‘jaliklarini tashkil qilish uchun aholiga bo‘lib berilishi, “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi takomillashtirilib, mahsulot yetishtiruvchilarga “bir darcha” tamoyili asosida kompleks xizmat ko‘rsatish tartibi yo‘lga qo‘yilishi ham oqilona qaror bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarini yaratish, yoshlar bandligiga erishish, fermer xo‘jaliklari faoliyatida qulaylik va tezkorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ayonki, chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. O‘tgan davrda ushbu tarmoqda ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ko‘p yillar davomida chorvadorlarni o‘ylantirib, tashvishga solib kelgan muammolar qisqa fursatda hal etildi, ularning xohish-istaklari, orzu-umidlari ro‘yobga chiqa boshladi.

> *“Albatta, bu natijalar, yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bu yil davomida qishloq xo‘jaligi subyektlariga 18 trln. so‘m imtiyozli kredit va 176 mlrd. so‘m subsidiya ajratilgani, umumiy qiymati 3,6 trln. so‘mlik 11600 ta yuqori unumli zamonaviy texnika va agregat yetkazib berilganining amaliy natijasidir.”*

Deputatlik faoliyatimga qadar ko‘p yillar fermerlik bilan shug‘ullanganim uchun sohaning issiq-sovug‘idan yaxshi xabardorman. Ochig‘i, bundan yetti-sakkiz yil avval sohaga yetarli darajada e’tibor berilmasdi. Fermer xo‘jaliklarida ham sohaga oid bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi tufayli ekinlarni joylashtirish va yuqori hosil olishda imkoniyatlar boy berilardi.

Bugun yurtimizda chorvachilikni rivojlantirish, zotli chorva mollarini xarid qilish, ularni ko‘paytirish va bu orqali aholining arzon, sifatli go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga keng yo‘l ochilgani chorvadorlarga qo‘l kelmoqda. Ayni maqsadga qaratilgan bir qator Farmon va qarorlar ichki iste’mol bozorida go‘sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashga xizmat qilayotir.

Sohadagi o‘zgarishlar haqida gapirganda, yurtimizda sut va go‘sht ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mingdan ziyod yirik chorvachilik komplekslari ishga tushirilgani, chorva naslini yaxshilash va mahsulot hajmini ko‘paytirish uchun aholiga 40 ming bosh qoramol, 82 mingta qo‘y va echki yetkazib berilgani, chetdan 260 ming bosh zotdor mol olib kelinganini alohida qayd etish kerak.

Ilgari 200 bosh naslli mol boqayotgan fermerlarga qoyil qolishardi, hozir fermer va klasterlarimiz 10 minglab naslli mollar, 100 minglab qo‘y-echkilar parvarishlab, xalqimiz dasturxoniga sifatli sut va go‘sht mahsulotlarini yetkazib bermoqda. Ayniqsa, bozordagi narxlar barqarorligini ta’minlab beryapti. Bunday o‘zgarishlar faqat ayrim chorvadorlar faoliyatida emas, balki minglab mulkdorlar hayotida yuz berayotgani e’tiborga molik. Bu yurtimizda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar natijasidir.

Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi sohasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning farovon turmush kechirishi, yurtimiz taraqqiyotini ta’minlashning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu yangilanish va o‘zgarishlarni odamlar o‘z hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

1 Qolaversa, qishloq xo‘jaligi ravnaqiga qaratilayotgan katta e’tibor, dehqon va fermerlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar bois sohaning barcha tarmog‘ida oldingi yillardagiga nisbatan salmoqli yutuqlarga erishilayotgani tahsinga sazovor. Xususan, birgina joriy yilda dehqon va fermerlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga yurtimizda 9 mln. tonna don, 16 mln. tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka, 15 mln. tonnadan ko‘p go‘sht va sut yetishtirildi.

Shuningdek, ushbu sohaga ilg‘or agrotexnologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ham ijobiy natija bermoqda. Masalan, 2024-yil 100 ming gektar maydonda kasallik va zararkunandalarga chidamli serhosil g‘o‘za navlari ekilib, ulardan mo‘l hosil yetishtirildi. G‘allachilikda resurs tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash

SOHADAGI YANGILANISHLAR YUTUQLARIMIZGA ASOS BO‘LMOQDA

Prezidentimizning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigini juda katta mamnuniyat bilan tingladim. Boisi ko‘p yillardan buyon faoliyat yuritayotgan kishi sifatida bugun mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan yaxshi xabardorman. Ayniqsa, mahsulot yetishtiruvchilarning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani bugun biz, dehqonu fermerlarning g‘ayratimizga-g‘ayrat, shijoatimizga-shijoat qo‘shib, yanada katta rejalar, marralar sari ilhomlantirmoqda.



Men 2018-yilda “Nurmanova Xurshida” fermer xo‘jaligini tashkil etib, Qamashi tumanining Odoqjonbuz mahallasi hududidan ajratib berilgan 18 gektar maydonda poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirish bilan fermerlik faoliyatini boshlagan edim.

O‘tgan olti yil ichida xo‘jaligimiz juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Nafaqat tuman, balki viloyatdagi eng namunali fermer xo‘jaliklaridan biriga aylandik. Albatta, bu yutuqlarimizning barchasi davlatimiz tomonidan biz fermerlarga berilayotgan erkinlik, bozor tamoyillari asosida ish yuritayotganimiz natijasi, deb bilaman.

Asosiysi, bugun o‘zimiz uchun o‘zimiz harakat qilyapmiz. Qaysi mahsulotni yetishtirsak, ertaga bozori chaqqon bo‘lishi, ko‘proq daromad olishimizni hisob-kitob qilib, shunga qarab ish ko‘ramiz. Bu yo‘lda izlanyapmiz, intilyapmiz.

Imkon qadar yerni bir kun ham bo‘sh qoldirmaslikka, bir ekin hosili olindimi, darhol o‘rniga mavsumga mos bo‘lgan keyingi ekinni ekishga harakat qilamiz. Bu har gektar yerdan olinadigan daromadni yanada oshirish uchun zamin yaratadi.

Masalan, bu yil erta bahorda yerga kartoshka, sabzi, piyoz, sarimsoqpiyoz, tarvuz, pomidor, brokkoli karami ekib yuqori hosil oldik. Yaqinda brokkoli karamlarimizni bozorga chiqarishni boshlaymiz.

Bo‘shagan yerlarga allaqachon to‘qsonbosti ekinlar ekdik. Ular unib ham chiqdi. Xullas, yil davomida o‘zimiz ham tinmaymiz, yerni ham tindirmaymiz.

Albatta, bularning barchasi sohada amalga oshirilgan islohotlar, xususan, erkin bozor tamoyillari joriy etilgani, halol raqobat muhiti yuzaga kelganida, deb bilaman.

Sherzod MAHMATMURODOV,
Qamashi tumanidagi “Nurmanova Xurshida” fermer xo‘jaligi ish boshqaruvchisi.

PREZIDENTIMIZ TABRIGI SURXON AHLINI RUHLANTIRDI

Yurtboshimizning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigi dehqonchilikda ulkan salohiyatga ega surxondaryolik mirishkorlarni yanada ruhlantirdi, desak, mubolag‘a emas.



So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo‘jaligida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan joriy yilda ham qishloq xo‘jaligi sohasida ulkan marralar zabt etildi. Buning zamirida, hech shubhasiz, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz agrar tarmog‘i yangi bosqichda rivojlantirilgani mujassam.

Qishloq xo‘jaligi sohasida yangicha yondashuv, dehqonlarimizning mehnati tufayli bugun bozorlarimiz to‘kin, aholi turmushi farovon. Bu jarayonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘z samaralarini berayotir.

Sohada yuz berayotgan o‘zgarish va yangilanishlar, zabt etilayotgan marralar Surxon vohasi misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, keyingi yillarda suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xo‘jalik va korxonalarning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda viloyatda 40 dan ortiq agroklasterlar tashkil etildi. Ayni paytda yetishtirilayotgan paxta va g‘allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 50 foizdan ortig‘i agroklasterlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida klaster va fermerlar 1 780 dan ortiq yuqori unumli texnika va agregatlar bilan ta’minlandi. Sohaga raqamlashtirish jarayonlari, tomchilatib sug‘orish texnologiyalari, innovatsiyalar jadal kirib bormoqda. Cho‘llanish, yerlarning sho‘rlanishi va degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproq unumdorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, hududdagi 46 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilib, 15 mlrd. kubometr suv iqtisod qilindi. Qariyb 55 ming gektar yerning suv ta’minoti yaxshilandi. Joriy yilda 15,3 ming gektar yer o‘zlashtirilib, foydalanishga kiritildi. Mazkur maydonlarga oziq-ovqat ekinlari ekildi, mevali bog‘ va tokzorlar barpo etildi.

Ana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan surxondaryolik mirishkorlar joriy yilda 764 ming tonna g‘alla, 274 ming 822 tonna paxta, 1 million 600 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, 273 ming tonna meva va uzum, 370 ming tonna kartoshka, 214 ming tonna go‘sht, 950 ming tonna sut, 589 ming dona tuxum, 2 ming tonna pilla yetishtirdi.

Kelayotgan yangi yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilingani, ayniqsa, soha xodimlari uchun ulkan mas’uliyat yuklashini chuqur anglaymiz. Zero, qishloq xo‘jaligining buguni va ertasi yer-suv resurslari bilan chambarchas bog‘liq.

> Prezidentimiz ishonchi, yuksak e’tirofi va g‘amxo‘rligi biz, surxondaryoliklarga yanada jo‘shqinlik, kuch va g‘ayrat, faollik baxsh etish bilan birga, mas’uliyatimizni yanada oshirdi. Kelayotgan yilda ham yangidan-yangi zafarlarni qo‘lga kiritamiz, albatta.

Farhodjon ISMOILOV,
Surxondaryo viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari,
“Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni sohibi.

FERMER QISHLOQ XO‘JALIGIDA BOSH ISLOHOTCHI

Davlatimiz rahbarining bundan yetti-sakkiz yil muqaddam endi fermer boy bo‘ladi, deya bildirgan fikrlari o‘tgan yillarda o‘zining hayotiy isbotini topdi. Qishloq xo‘jaligidagi hayotbaxsh islohotlar samarasida yaqin yillargacha har gektar paxta maydonidan 25 – 30 sentnerdan hosil olingan markaziy Farg‘ona yerlarida o‘tgan qisqa davrda hosildorlik o‘rtacha 65 – 70 sentnerga yetdi.



Birgina joriy yilning o‘zida 75 gektar yerda Xitoy tajribasi asosida har gektarda 230 – 250 ming tup g‘o‘za nihollari parvarishlab, hosildorlikning 70 sentnerdan oshishiga erishdik. Zamonaviy paxta terim mashinalari orqali 12 ish kunida 450 tonnadan ziyod paxta hosili terib olindi. Fermer xo‘jaligimiz tajribasi viloyat miqyosida ommalashtirildi. Qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov paxta dalalarimizda bo‘lib, jahon tajribasi hamda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda olib borayotgan ilg‘or tajribalarimizni e’tirof etgani bizni nihoyatda mamnun qildi.

Prezidentimizning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida qayd etilganidek, amaliyotda ilm-fan yutuqlari, innovatsiya texnologiyalari keng qo‘llanayotgani yutuqlarimizda muhim omil bo‘lmoqda. Tabrikda qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish, investitsiya jalb qilishga e’tibor yanada kuchaytirilishi urg‘ulandi. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi fanlar akademiyasi tashkil etilishi tashabbusi ilgari surildi. Shubhasiz, bunday e’tibor va rag‘bat rentabellik, daromadimiz salmog‘i yanada oshishiga xizmat qiladi.

Poytaxtimizda o‘tkazilgan bayram tadbirida qatnashib, ko‘ksimga “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni taqilayotganida sidqidildan qilinayotgan mehnatimiz ahamiyatini yanada yaqqol his etdim. Asosiysi, bugun fermer qishloq xo‘jaligida tom ma’noda bosh islohotchi sifatida namoyon bo‘layotgani qalbimni g‘ururga to‘ldirdi.

Vohidjon OBIDOV,
Yozyovon tumanidagi “Mezon” fermer xo‘jaligi rahbari,
“Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni sohibi.

XALQIMIZNING BIRDAMLIK QO‘SHIG‘I

1 – Davlat madhiyasi har bir mamlakatning mustaqilligi, kuch-qudrati, tarixiy qadriyatlari va ma’naviy dunyosini aks ettiradi, – dedi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxoliqov. – Bundan o‘ttiz ikki yil muqaddam millatimizning bosh qo‘shig‘i qabul qilingan edi. Shundan beri madhiyamiz Vatanimiz ozodligi, farovonligi ifodasi sifatida yangrab kelmoqda. Bu betakror taronani tinglaganda beixtiyor qalbimizda eng sohir tuyg‘ular jo‘sh uradi. Madhiyamizning har bir satri mustaqil Vatanimizning ma’lum bir qirrasini namoyon etadi. Unda ona diyorimizning go‘zal tabiati, xalqimizning azaliy qadriyatlari, qadimiy va boy tariximiz, bugunimiz va buyuk kelajagimiz tarannum qilinadi. Zotan, har birimiz bu qo‘shiqni dilda saqlashimiz, mehr-muhabbat ila kuylashimiz, avaylab asrashimiz zarur.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar yakuniga yetmoqda. Shu paytga qadar Prezidentimiz bir necha marotaba markazning loyihalash va qurilish ishlari bilan tanishish uchun tashrif buyurdi. Bu yerni sifatli va mazmunli kontent bilan to‘ldirish har birimizdan alohida mas’uliyat talab qilmoqda. Shu bois bir necha oydirki, markazning ilmiy xodimlari va tadqiqotchilari yurtimizdagi hamda xorijiy olimlar bilan hamkorlikda markaz kontenti va konsepsiyasini takomillashtirish ustida ish olib bormoqda. Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusiga ko‘ra joriy yilning 3 – 15-dekabr kunlari qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Ma’rifat karvoni” loyihasi doirasida joylarda turli uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Tadbirda madhiyamizning qabul qilinish jarayonlari, uning yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashdagi ahamiyati haqida fikrlar bildirildi. Taniqli san’atkorlarning chiqishlari tadbirning bayramona shukuhini yanada oshirdi.

Qayd etish joizki, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan vazirlik hamda idoralar tizimlaridagi tashkilot va muassasalarda Davlat madhiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan 10 – 15-dekabr kunlari turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, viktorinalar, ko‘rik-tanlovlar, chellenjlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Ularda taniqli yozuvchi va shoirlar, olimlar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, san’atkorlar, iste’dodli yoshlar qatnashadi. Jumladan, yurtimizdagi ta’lim muassasalarida “Yurakni madh etgan sado!” mavzuida ochiq darslar, ijodiy uchrashuvlar va insholar tanlovlari o‘tkaziladi.

Dilshod KARIMOV
(“Xalq so‘zi”).

Biz va jahon

AMERIKADA AMALIY SAN’ATIMIZ FESTIVALI

O‘zbekistonning AQSHdagi elchixonasi diplomatlari Vashingtondagi Ronald Reygan xalqaro savdo markazida tashkil qilingan “Winternational Embassy Showcase” 11-yillik madaniy va sayyohlik festivalida ishtirok etdi.



AQSH poytaxti madaniy hayotida muhim voqeaga aylangan ushbu tadbir diplomatik korpus, madaniy-gumanitar tashkilotlar, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar va ommaviy axborot vositalari vakillaridan iborat keng auditoriyani jamladi. Bu yil festivalda 6 mingdan ortiq kishilar qatnashdi, 70 ga yaqin diplomatik missiya vakillari o‘z milliy merosi, jumladan, san’at, hunarmandchilik, pazandalik an’analarining boyligi va rang-barangligini, shuningdek, o‘z davlatlarining sayyohlik salohiyatini namoyish qildi.

Tadbir ishtirokchilari xalq amaliy san’ati namunalari o‘rin olgan O‘zbekiston stendini yuqori baholashdi. Mehmonlar sayyohlik va investitsiya kiritish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar bilan ham tanishib, o‘zbek milliy taomlaridan bahramand bo‘ldi.

Vashington xalqaro savdo markazi ijrochi direktori Ellison MakKiten mamlakatimiz diplomatlariga festivalda ishtirok etgani uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekistonning boy madaniy merosi va yuksak hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘rishdan xursand ekanligini ta’kidladi.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining mintaqaviy vakili Tanya Musumi o‘zbek madaniy merosiga alohida qiziqish bildirdi. U ushbu madaniy qadriyatlarni yanada yaqinroq ko‘rish, o‘zbek xalqining an’analari bilan tanishish maqsadida O‘zbekistonga safar uyushtirish istagini ma’lum qildi.

Merilend Jahon savdo markazining global hamkorlik bo‘yicha katta direktori Loren Kupfershmid, o‘z navbatida, AQSH jamoatchiligining O‘zbekiston ekspozitsiyasiga bo‘lgan qiziqishidan hayratda ekanligini aytib o‘tdi. U Tinchlik korpusi ko‘ngillisi sifatida Toshkent va Buxoroga qilgan tashriflari haqidagi xotiralari bilan o‘rtoqlashar ekan, O‘zbekiston o‘zining mehmondo‘stligi va iliqligi bilan unda unutilmas taassurot qoldirganini qayd etdi.

“Dunyo” AA.
Vashington

Pokistonning yirik savdo tarmoqlarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari burchagi ochiladi.

TA’LIMSIZ, ILM-FAN RIVOJISIZ TARAQQIYOT BO‘LMAYDI

Shu yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganiga 32 yil to‘ldi. O‘tgan davr mobaynida ushbu hujjatga bir necha marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Ayniqsa,o‘tgan yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo‘li bilan mamlakatimiz Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilingani muhim tarixiy voqea bo‘ldi.

Fikr



Bosh qomusimizning yangi tahriri mazmunan va shaklan yanada takomillashgan bo‘lib, jamiyatimizning barcha sohasini, jumladan, oliy ta’lim, fan va yoshlar bilan bog‘liq masalalarni keng qamrab oldi. Ta’lim hamda ilm-fanning rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan davlatning mas’uliyati, yoshlarning ijodiy hamda intellektual rivojlanishiga yo‘naltirilgan huquqiy va ijtimoiy majburiyatlari aniq belgilab qo‘yildi. Bu davlatimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim qadam bo‘lib, oliy ta’lim hamda ilmiy tadqiqotlar sohasidagi islohotlarning mustahkam huquqiy asosini yaratdi, desak, ayni haqiqatdir.

Asosiy Qonunimizning 51-moddasiga ko‘ra har bir fuqaro oliy ta’lim olish huquqiga ega. Uning amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi shart. Konstitutsiyada belgilangan ushbu normada, eng avvalo, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli ekani qayd etilgan.

Darhaqiqat, davlat nafaqat o‘z qaramog‘idagi ta’lim tashkilotlari, balki nodavlat, xususiy hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi ta’lim tashkilotlarining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Ushbu konstitutsiyaviy poydevor hamda Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan bugungi kunga kelib oliy ta’lim muassasalari soni sezilarli darajada oshdi. Qolaversa, yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovi ham ancha yuqoriladi. 2023/2024 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarini jami 197 ming 319 nafar talaba tamomladi. Ular zamonaviy fikrlashi, bir nechta xorijiy tillarni mukammal bilishi, asosiysi, o‘z mutaxassisligining sir-asrorlarini puxta o‘zlashtirganligi bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda yoshlarimizni har tomonlama yetuk, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar qilib tayyorlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy holati yaxshilandi, professor-o‘qituvchilar va talabalar yaqindan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Hozirda o‘ttizdan ortiq oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilgan. Bu esa o‘quv maskanlarida ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv ishlarini bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etish, mehnat bozorini o‘rganib, o‘quv jarayonini uning talablariga moslashtirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi ham belgilab qo‘yilgan. Ushbu norma oliy o‘quv yurtlarida zamon talablari darajasida sifatli ta’lim berish, bu maskanlar jozibadorligini oshirish, xalqaro nufuzli oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, talabalarni ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish hamda fan-ta’lim natijalarini tijoratlashtirish imkonini berdi.

Darvoqe, Asosiy Qonunimizda o‘qituvchi-pedagoglarning huquqiy maqomi ham mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 52-moddasi o‘qituvchilarning mehnati va farovonligiga alohida e’tibor qaratadi. Yangi tahrirdagi qomusimizda ushbu moddada o‘qituvchilarning qadr-qimmati, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy o‘sishi hamda himoya qilish masalalariga keng e’tibor berilgan. Bu orqali ta’lim sohasidagi inson kapitalini qo‘llab-quvvatlash, mutaxassislarning shaxsiy va professional o‘sishini ta’minlashga yo‘naltirilgan muhim qadamlar qo‘yildi.

Aytish kerakki, yangi tahrirdagidan avvalgi Konstitutsiyada o‘qituvchilarning qadr-qimmatiga va ijtimoiy himoyasini ta’minlashga oid qoidalar bor bo‘lsa-da, biroq ularning ijtimoiy muhofazasi aniq belgilangan modda mavjud emas edi. Ya’ni oliy ta’lim sohasida o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyasiga oid chegaralar va aniq huquqiy mexanizmlar belgilanmagan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘qituvchilarning mehnati hamda farovonligiga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, davlat o‘qituvchilarning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta’minlashi, ularning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirishi va qadr-qimmatini himoya qilishi haqida aniq normalar belgilab qo‘yildi.

Mazkur konstitutsiyaviy normaning mohiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘qituvchi-pedagoglar mehnati mamlakatimizni rivojlantirish, barkamol avlodni kamol toptirish, shu bilan birga, xalqimizning ma’naviy va madaniy salohiyatini yanada boyitishning asosi sifatida ta’kidlanmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirish bo‘yicha birgina joriy yilda 3 ming 450 nafar professor-o‘qituvchi xorijda malaka oshirganini misol qilib keltirish mumkin. 2025 – 2030-yillarda esa xorijda malaka oshiradigan yoki stajirovka o‘taydigan professor-o‘qituvchilar ulushi 20 foizga oshirilishi rejalashtirilgan.

Professor-o‘qituvchilar xorijda malaka oshirarkan, ular yangi bilim va tajribaga ega bo‘ladi, bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning ta’lim tizimini xalqaro darajadagi standartlarga moslashtirish va ilg‘or pedagogik usullardan foydalanishga xizmat qiladi.

Yana bir jihat. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazkur tizimning xalqaro standartlarga mos ish olib borishiga katta turtki berdi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, kredit-modul tizimiga o‘tish kabi ishlarning jadallashishi aynan ushbu konsepsiya bilan bevosita bog‘liq.

Sohadagi yangiliklardan yana biri – 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab “Registrator ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Alohida ta’kidlash kerakki, ushbu tizim talabalarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga turtki bermoqda.

Sirasini aytganda, ta’limsiz, ilm-fan rivojisiz hech bir davlatda taraqqiyot bo‘lmaydi. Shu ma’noda, ta’lim sifatini oshirishga qaratilayotgan e’tibor davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilishi, qolaversa, bu ustuvor masalalar Bosh qomusimizda alohida moddalar bilan mustahkamlab qo‘yilishi zamirida ham ilm-fanni yuksaltirish maqsadi mujassam. Zero, bu sa’y-harakatlar kelajakda ilm-fan sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishishimizga yo‘l ochadi.

Zulfiya PO‘LATOVA,
Jamoat xavfsizligi universitetining
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Sport

O‘zbek polvonlari mutlaq g‘olib!

Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida bir hafta davom etgan kurash bo‘yicha yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida IX,faxriylar o‘rtasidagi III jahon chempionati musobaqalari nihoyasiga yetdi.



Jahon chempionatida 30 ta oltin, 30 ta kumush va 12 ta bronza medalini qo‘lga kiritgan polvonlarimiz umumjamoa hisobida 1-o‘rinni egalladi. Keyingi o‘rinlar chempionat mezboni Mo‘g‘uliston jamoasiga hamda turkmanistonlik kurashchilarga nasib etdi.

Muzaffar polvonlarimizni harbiy orkestr jo‘rligida Toshkent xalqaro aeroportida kutib olish marosimida mamlakat Kurash federatsiyasi mas’ullari, soha fidoyilari, ota-onalar qatnashdi.

TurkiyadaTermiziy qo‘lyozmasi topildi

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xodimi,faxriy professor Mirzo Kenjabek Turkiyada saqlanayotgan Imom Termiziyning “Al-Ilal al-kabiyr” asari qo‘lyozmasi haqida ma’lumot berdi.

Noyob asar

Olimning aytishicha, Imom Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atr “Kitobul-ilal”ning Bayrutda 1988-yilda chop etilgan ikkinchi nashrida Turkiyaning qimmatli qo‘lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida Termiziyning “Al-Ilal al-kabiyr” asarining yagona qo‘lyozmasini ko‘rgani va undan fotonusxa olib, o‘z tadqiqotining qayta nashrida foydalangani haqida yozadi.

“Xalq so‘zi”.

UCHINCHI RENESSANSNING TO‘RT UZVIY HALQASI

O‘zbekistonda qisqa davrda ta’limning barcha bosqichida salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Keyingi yillarda qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash,kamchiliklarga barham berib, yangi imkoniyatlar,yechimlar topish yo‘lidan dadil odim tashlanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan,pedagogika fanlari doktori,professor Ulug‘bek Inoyatovning ta’lim sohasidagi islohotlar mazmun-mohiyatini atroflicha yoritishga qaratilgan “Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim” nomli kitobining keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilinishi diqqatga sazovor.



Kitob javoningizga

Kitob davlatimiz rahbarining *“Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”*, degan so‘zlari bilan boshlanadi.

Kitobda yangi O‘zbekistonni bunyod etish borasida barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham yangi g‘oyalar kirib kelgani, samarador o‘zgarishlar yuz berayotgani, uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor yaratilayotgani ham ilmiy, ham hayotiy misollar asosida tahlil qilinadi. Muhimi, ta’limning har bir o‘zaro uzviy bog‘liq bosqichida ro‘yobga chiqarilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatiga urg‘u berilib, erishilayotgan yutuqlar ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, sohadagi islohotlardan ko‘zlangan ezgu maqsadlar, strategik vazifalar ham yoritilgan.

Kitobda, avvalo, Prezidentimizning doimiy e’tibori va g‘amxo‘rligi bois o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yanada oshirishga katta e’tibor berilayotgani alohida qayd qilingan.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlaboq zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari qilib tarbiyalash, shu maqsadda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh etish masalalarini kun tartibiga qo‘yib kelyapti. Bu bejiz emas, albatta. Chunki rivojlangan davlatlarda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta’lim tizimidan boshlanganini ko‘rish mumkin.

Prezidentimiz ta’lim sohasiga bag‘ishlangan aksariyat yig‘ilishlarda maktabni o‘zgartirmasdan turib odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmasligiga, ta’lim va tarbiyaning asosiy poydevori maktab ekanligiga, maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchi ekanligiga alohida urg‘u berarkan “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan g‘oyani ilgari surganida ham shu ma’no mujassam.

Ma’lumki, uzoq yillar ta’limga doir qonunlar, dasturlar qabul qilinganiga qaramay maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘si va nufuzi tushdi. Innovatsion texnologiyalar joriy etilishiga yetarli e’tibor berilmagani ham bor gap. Bu, shubhasiz, ta’lim mazmuni va sifatini pasaytirib, zamonaviy fikrlaydigan, malaka va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Kitobda mana shu holatlar asosli tahlil qilinadi va keyingi yillarda ta’lim tizimi, xususan, maktab ta’limini tubdan isloh etishga kirishilgani hayotiy misollarda ko‘rsatib beriladi.

Ta’lim tizimidagi islohotlar haqida gap ketganda, tabiiyki, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishga katta e’tibor berilayotganini aytish joiz. Xususan, kitobda maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida boshlangan islohotlar natijasida keyingi sakkiz yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5,5 barobar ko‘payib, maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 74 foizga yetgani ta’kidlanadi.

Bugun hayotimizni oliy ta’lim tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Keyingi yillarda bu yo‘nalishda ham katta o‘zgarishlar qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta’limga qabul jarayonlarini adolat va shaffoflik mezonlari asosida tashkil etishga, ta’lim kvotalarini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Kitobda qayd qilinganidek, qamrov 2016-yilda 9 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 48 foizga yetdi. Oliy o‘quv yurtlarida zamon talablariga mos kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribani keng qo‘llash maqsadida rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta’lim muassasalari bilan hamkorlik rivojlantirilayotir. Bu esa yoshlarda oliy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, kelgusida ular orasidan iste’dodli, istiqbolli kadrlarni saralab olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Kitobda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini yuksaltirish, dissertatsiyalar sifat va mazmunini yaxshilashda professor-o‘qituvchilarning mas’uliyatini oshirish va boshqa ko‘plab dolzarb masalalar qamrab olingan.

Kitobning “Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim” deb nomlanishi ham bejiz emas. Unda ta’limning har bir bo‘g‘iniga: maktabgacha, maktab, kasb ta’limi, oliy ta’lim va undan keyingi ta’limda yuz bergan o‘zgarishlar, islohotlar mohiyati mantiqan, o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilingani asar ahamiyatini oshirgan.

O‘ylaymizki, mazkur kitob ta’lim sohasining har bir xodimi faoliyatida qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Tursunboy FAYZULLAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yoshlar murabbiysi.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

“Ochiq eshiklar kuni”

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tomonidan tizim korxonasi hisoblangan “Chirchiq GESlar kaskadi” filialida 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi.



Tadbirda korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar, faoliyatga doir yangiliklar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

“O‘zbekgidroenergo” AJning Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i Shavkat Karatayevning aytishicha, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu kabi ishlarni raqamlashtirish jarayonlarisiz amalga oshirib bo‘lmasligini inobatga olib, bunga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, tadbirda xaridlar tizimida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasida qilinayotgan ishlar xususida ham so‘z yuritildi.

Samolyot chiptalari uchun chegirma



“Uzbekistan Airways” AJ o‘rta maxsus,kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun barcha mahalliy aviaqatnovlardagi ekonom-klass aviachiptalari tariflariga 50 foizgacha chegirma e’lon qildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra ushbu chegirma shu yil 23-dekabrdan boshlab 2025-yilning 7-yanvariga qadar amalga oshiriladigan aviaqatnovlar uchun amal qiladi.

Chegirmali chipta uchun davlat muassasasida o‘qishni tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Bolalar kutubxonasi zamonaviy qiyofada



Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetidan ajratilgan 2 mlrd. 275 mln. so‘m mablag‘ evaziga viloyat bolalar kutubxonasi zamonaviy ko‘rinishga keltirildi.

Bugungi kunda mazkur ziyo maskani fondi 105 400 nusxani, elektron adabiyotlar soni 10 520 tani tashkil qiladi. Kutubxonaga joriy yilda 22 ming 400 nafar kitobxon a’zo bo‘lgan.

Bu yerda adabiyotlarni saqlash, ma’lumot va bibliografiya, uslubiy, axborot resurslari va texnologiyalari, madaniy-ommaviy tadbirlar, maktablarga amaliy-uslubiy yordam ko‘rsatish hamda kitoblarni jamlash va katalog yaratish bo‘limlari mavjud.

“Xalq so‘zi”.

10 – 13-dekabr kunlari Qarshi shahrida “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining respublika final bosqichi bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542.14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.50 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6